



mustahkam belgilab turuvchi omillardan soʻzlaydi, albatta.

Mustaqilligimiz yillarida yaratilgan keng huquq va imkoniyatlar natijasida oʻzbek tilining milliy oʻziga xosligi, soʻzga boy hamda tarixiy ildizlari chuqur ekanligi yanada yaqqolroq namoyon boʻlmoqda. Lekin baʼzan tilimizni sof turkiycha qilamiz deb hammaga tushunarli boʻlgan baynalmilal soʻzlarni ham oʻzbekchalashtirishga urinish hollari uchramoqda. Masalan, baʼzan yozma va ogʻzaki nutqda samolyot soʻzi oʻrniga “tayyora”, institut oʻrniga “oliygoh”, tuman oʻrniga “nohiya” kabi talaffuzi ogʻir soʻzlarning ishlatilayotganiga duch kelamiz. Buning oʻrniga tilimizning asl boyliklarini koʻproq oʻrganish muhim. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab kabi mutafakkir-shoirlarimiz va Qodiriy, Choʻlpon, Gʻafur Gʻulom, Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor va Mirtemir singari ulugʻ adiblarimizning rang-barang tili, xalqchil va serjilo uslubini chuqur oʻrganish maʼnaviyatimizni ham, nutq va tafakkurimizni ham behad boyitadi.

Oʻquvchilarda ona tiliga qiziqtirishda, avvalo, ushbu til haqidagi tushunchalarini uygʻotish lozim.

Masalan, ingliz tilini mavqeyi va dunyo tili maqomiga ega boʻlganligini, buning oqibatida 200 dan ortiq davlatlarda ingliz tilini oʻrganish urfga kirganini aytish mumkin.

Avalo, oʻz tilimizdan uyalmaslikni, ona tilimizni boshqa xalqlarga oʻrgatish orqali rivojlantirishimizni oʻquvchilarga anglatishimiz zarur hisoblanadi.

Birinchi navbatda oʻquvchi oʻz ona tilini his qilishi uchun ular uchun turli qiziqarli darslarni tashkil etish lozim.

Masalan, oʻquvchilarga mahallasida yashaydigan odamlar bilan ona tili haqida

nimalarni bilishi yuzasidan savol-javob qilish va ularning ona tiliga hurmatlarini oʻrganishni vazifa qilib berish mumkin.

Bundan tashqari oʻquvchilarning qaysi sohaga qiziqishlariga qarab kasblarini rivojlanishida ona tilini muhimligini tushuntirish kerak.

Jumladan, oʻquvchi jurnalist boʻlmoqchiligini aytsa, oʻquvchiga ona tilini qanchalik zarur ekanligini, badiiy tilda nutqini rivojlantira olmasa, mahalliy lahjalarda uning muxbir boʻla olmasligini tushuntirish zarur boʻladi.

Abdulla Qahhor ona tilimizning matonatli jonkuyarlaridan edi. Ibratli bir holat: adibning adabiyot va tanqidchilik yoxud yoshlar maʼnaviyati hamda madaniyatiga bagʻishlangan bironta nutq yo maqolasi yoʻqki, unda adabiy tilimizning beqiyos boyligi va imkoniyatlaridan faxrlanib yozmagan, uning jiddiy muammolaridan tashvishlanib, keskin fikrlar aytmagan boʻlsin.

Abdulla Qahhorning 60 yillar muqaddam hozirgi Jahon tillari universiteti talabalari bilan uchrashuvdagi nutqida “Sizlar institutni bitirgandan keyin joylarga borib oʻquvchilarga ingliz, nemis, fransuz, ispan tillarini oʻrgatasizlar. Mening sizlarga aytadigan eng zarur gapim shuki, sizlar boradigan joylaringga chet tillar bilan birga, birinchi navbatda, oʻz ona tilimiz — oʻzbek tiliga cheksiz muhabbat tuygʻusini olib boringlar! Oʻzbek tili gʻoyat boy, nihoyat chiroyli, har qanday fikr va tuygʻuni ifodalashga qodir ekanini amalda koʻrsatinglar; qayerda va qanday sharoitda ishlamanglar, til madaniyatimizning mashʼali boʻlinglar!” Bu soʻzlar zamiridagi hayotiy maʼno, ezgu maqsad va tilak Oʻzbekistonimizning kelajagi boʻlmish bugungi yoshlarimiz uchun hayotiy bir dasturilamaldir.



O'quvchilarning o'z milliyliги va tilining qadr-qimmatini his qilishlari uchun avvalo biz kattalar o'rnak bo'lishimiz kerak.

Agar biz farzandlarimiz oldida ona tilimizga yod bo'lgan so'zlar va lahjalarda gapirar ekanmiz, farzandlarimiz bizdan ibrat olib ulg'ayishi bor haqiqatdir.

Mahmudxo'ja Behbudiyning 1915 yilda yozilgan "Til masalasi" deb nomlangan maqolasida o'zbek tilining imlosi va adabiy normasi bilan bog'liq bir qator dolzarb masalalar xususida fikr yuritilgan. O'sha davr lingvistik adabiyotlarida ta'kidlanishicha, fors va arab tillarini eng ko'p qabul qilgan til usmonli turk tili bo'lgan. Bu til oddiy xalq tilidan uzilib qolgan bo'lib, unda bitilgan narcalarni faqat ziyoli kishigina tushuna olgan. Usmonli turk tili turk xalqining adabiy tili sanalgan. Mahmudxo'ja Behbudiy maqolada quyidagilarni yozadi: "Turklarning ba'zi toifasi forsiy va arabiyini u qadar ko'p oldilarki, tillari turkiy, forsiy va arabiydan

qo'shulub, "usmonli tili" ataladi. Ushbu uch tilni adabiyot va qoidalaridan boxabar bo'lmaguncha usmonli shevasinda yozmoq mumkin emasdur..." Muallifning fikrlaridan shuni anglash mumkinki, adabiy til jonli xalq tilidan oziqlanishi, shu asosda boyib borishi mumkin.

Qanchadan-qancha o'zbeklar ayni paytda yer yuzining turli nuqtalaridagi boshqa mamlakatlarda muhojirlikda, boshqa tuzum, boshqacha tutumda hayot kechirib kelishmoqda. Ammo ularning aynan o'z tiliga bo'lgan ehtiromi bizni uyaltirib qo'yadigan darajada butunlay o'zgacha.

Hurmatli o'qituvchi va pedagoglarga so'ngi so'zim shuki, ona tilimizni qadrini yuksaklarga ko'tarar ekanmiz, kelajak avlod oldida yuzimiz yorug', qaddimiz baland va buyuk merosni saqlab qolinishiga erishamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sh. Mirziyoyev, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.
- 2.Mahmudxo'ja Behbudiy, Til masalasi 1915-yil.